

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov</b>	
Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
<hr/>	
PEDAGOGIKA	
<b>B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov</b>	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
<b>Ким Владимир</b>	
Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов .....	15
<b>A.H.Amonov</b>	
Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста. ....	20
<b>N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
<b>O.Q.Xasanova</b>	
Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati .....	28
<b>M.E.Abdullayev</b>	
O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari.....	34
<b>B.Sh.Turg'unboyev</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar .....	37
<b>X.A.Kadirova</b>	
Tibbiyot oliygochlarda tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
<b>S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov</b>	
Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori .....	49
<b>D.K.Karimov</b>	
Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
<b>K.F.Nazarova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
<b>J.Dj.Sultanov</b>	
Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
<b>X.X.Xasanbayev</b>	
Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
<b>O'R.Maxmudov</b>	
O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarning professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
<b>I.Y.Masharipov</b>	
Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili .....	71
<b>F.O.Qo'ysinova</b>	
Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi .....	75
<b>R.X.Ibragimov</b>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish .....	78
<b>A.Tuychiyev</b>	
Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

**O'ZBEKISTON HARBIY TA'LIM MUASSASALARI HARBIY PEDAGOGLARINING  
PROFESSIONAL HARBIY PEDAGOG BO'LIB SHAKLLANISHIDAGI MUAMMOLAR VA  
ULARNING YECHIMI**

**PROBLEMS OF FORMATION OF MILITARY TEACHERS OF MILITARY EDUCATIONAL  
INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN BY PROFESSIONAL MILITARY TEACHERS AND THEIR  
SOLUTION**

**ПРОБЛЕМЫ СТАНОВЛЕНИЯ ВОЕННЫХ ПЕДАГОГОВ ВОЕННО-УЧЕБНЫХ  
ЗАВЕДЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМИ ВОЕННЫМИ ПЕДАГОГАМИ И ИХ  
РЕШЕНИЕ**

**Maxmudov O'ktam Raxmatovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi katta ofitseri

**Annotatsiya**

*Maqolada O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi oliy harbiy ta'lif muassasalari harbiy o'qituvchilarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi to'g'risida tavsiyalar yoriltilgan.*

**Аннотация**

*В статье описаны проблемы формирования военных преподавателей высших военно-учебных заведений в системе Министерства обороны Республики Узбекистан как профессиональных военных педагогов и даны рекомендации по их решению.*

**Abstract**

*The article describes the problems in the formation of military teachers of higher military educational institutions in the system of the Ministry of Defense of the Republic of Uzbekistan as professional military pedagogues and recommendations on their solution.*

**Kalit so'zlar:** Pedagog, harbiy pedagogika, professor-o'qituvchilar, harbiy o'qituvchilar, kasbiy-pedagogik malaka, kasbiy-pedagogik madaniyat, shaxsiy mas'uliyat, ofitser, mashg'ulot, oliy harbiy ta'lif muassasalari.

**Ключевые слова:** Педагог, военная педагогика, преподаватели, военные преподаватели, профессионально-педагогическая квалификация, профессионально-педагогическая культура, личная ответственность, офицер, подготовка, высшие военные учебные заведения.

**Key words:** Pedagogue, military pedagogy, teachers, military teachers, professional-pedagogical qualification, professional-pedagogical culture, personal responsibility, officer, training, higher military educational institutions.

**KIRISH**

Yangi O'zbekistonda harbiy ta'lif tizimini isloh qilishning zamonaviy bosqichida harbiy o'qituvchining kasbiy darajasiga, uning ish natijalari uchun shaxsiy mas'uliyatiga bo'lgan talab oshib bormoqda. Hozirgi kunda amaliyotchi-psixolog, o'z fanini yaxshi biladigan, kursantlarni shaxs sifatida tushunadigan, o'zini boshqara oladigan o'r ganuvchilarni ta'lif-tarbiyasiga jon kuydiradigan professional pedagoglarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu sifatlarga o'z fanini chuqr bilish bilan bir qatorda, kursantlarni bilim olishlari uchun pedagogika-psixologiya qonuniyatlarini amalga qo'llash bilan erishish mumkin. Oliy harbiy ta'lif muassasalarida esa o'z fanini yaxshi biladigan, lekin professional pedagogik faoliyatga tayyorlanmagan profesor-o'qituvchilar faoliyat yuritayotgani muommo sifatida ko'zga tashlanib kelmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLИ**

Amaliyot va o'tkazilgan tahlillar oliy harbiy ta'lif muassasalari o'qituvchilarining aksariyati professional pedagogik mahorat nima ekanligini va uni shakllantirish usullari haqida aniq tasavvurga ega emas. Ularning ko'pchiligi ta'sir o'tkazishning stereotipli, monoton usullariga sodiq qolgan holda mashg'ulotlarni o'tkazishda amaliy ko'nikmalar majmuasi bilan cheklangan va bu pedagogik faoliyat uchun yetarli ekanligiga to'liq ishonch hosil qilib qolmoqda. Afsuski bu muammo harbiy pedagogikaga yangi qadam qo'ygan ofitserlardagina emas balki, ma'lum stajga ega bo'lgan o'qituvchilarimizda ham mavjuddir. Hozirgi islohatlar davrida yangicha o'qitish metodikasini qo'llash zarurati kursantlarning bilim savyysi, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji ko'rsatib turibdi. Biroq oliy harbiy ta'lif muassasalaridagi professor-o'qituvchilar tarkibining ko'pchiligi bir hillikka

## PEDAGOGIKA

asoslangan, andozaga tushib qolgan, eski o'qitish metodikasini qo'llab kelmoqdalar. Achinarlisi shundaki, oliy harbiy ta'lif muassasalaridagi professor-o'qituvchilar eskirgan usullardan foydalanib mashg'ulot o'tkazishlari, ta'lif berayotgan fanini yaxshi bilish pedagogik faoliyat uchun yetarli, deb hisoblaydilar.

Bundan 10-20 yil avval oliy harbiy ta'lif muassasalarida o'qituvchilik faoliyatini olib borayotgan ofitserlarda "menga o'rgatganidek o'rgataman" qabilida, o'zining shaxsiy tajribasi asosida o'qitganlar. Bunday tizimda o'qigan kursantlar berilgan ma'lumotlarni qabul qilishi, eslab qolishi, og'zaki takrorlashi yoki yozma tarzda qayd qilishlari kerak, biroq pedagogik qoidalarsiz bu ma'lumotlarni singdirish bir muncha mushkul bo'ladi. Bunday mashg'ulotlar natijalari hammaga ma'lum: salbiy o'qitish nazariyasi, kursantlarni o'zlashtirishlariga saliby ta'sir ko'rsatib, kelajakda yetuk kadr bo'lib yetishishlariga to'sqinlik qiladi.

O'tkazilgan tahillilar natijasi, so'ngi yillar davomida harbiy o'qituvchining kasbiy-pedagogik madaniyati to'g'risidagi tasavvur notiqlik mahorati va notiqlik san'atini mujassam etuvchi universalizm va ensiklopedizmdan malakaning umumiyo ko'rsatgichini mujassam etuvchi kasbiy-pedagogik madaniyatga o'zgarib bormoqdaligini ko'rsatmoqda.

Rahbariy hujjatlarda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy ta'lif muassasalarini harbiy o'qituvchi lavozimlariga nomzodlar pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlik va yuksak ahloqiy fazilatlarga boy, ta'lif muassasalarida faoliyat ko'rsatishga tayyor harbiy xizmatchilar qatoridan saralab olinadi.

O'qituvchining kasbiy rivojlanishini professional pedagogik faoliyat va potensial sub'ekti tarzida sifat, ongli va uzlusiz o'zgarish jarayoni sifatida tushunamiz mumkin. Kasbiy imkoniyatlar - bu shaxsnинг kasbda va kasb orqali uning individualligini namoyon qilish vositalarini o'zlashtirishdagи istiqboldir, bu harbiy o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [1].

Muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatning asosini puxta pedagogik tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, kasbiy pedagogika sohasidagi nazariy va uslubiy bilimlar tashkil etadi. V.A.Slasteninning fikricha, "... pedagogik faoliyat-bu insoniyat to'plagan madaniyat va tajribani keksa avloddan yosh avlodlarga o'tkazishga, ularning shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratishga va muayyan ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi" [2] deb ta'kidlab o'tgan. Bizning fikrimizcha oliy harbiy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilarini qayta tayyorlash, ularning o'qituvchilik mahoratini yanada oshirish borasida yangicha yondashuvlarni qo'llash zarur.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Yangi yondashuvlar haqida gapirganda, har doim ham yangi, zamonaviy va hech kim sinab ko'rмаган narsani ixtiro qilish shart emas. Ko'pincha muammoning yechimi avval sinovdan o'tgan, unchalik ham unutilmagan ish shakllari va usullaridan topish mumkin. Buni xorijiy davlatlarda harbiy pedagogik kadrlar tayyorlash amaliyoti tasdiqlaydi. Faqat o'tmishni yaxshi o'rgangandan so'ng, hozirgi vaziyatning sabablari to'g'risida xulosa chiqarish va harbiy ta'lif muassasalarini o'qituvchilarini o'qitishning eng yaxshi usullarini topish choralarini ko'rish mumkin.

Rossiyada harbiy ta'lif muassasalariga XIX asrning boshlarida asos solindi, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, to'liq ish faoliyatini boshladi. Universitetning o'qituvchilar tarkibi yuqori malakali kadrlar bilan butlandi. [3].

O'sha davrda harbiy ta'lif muassasalarining o'qitish dasturi ofitser kadrlarni individual sifatlarini hisobga olmagan holda yaratilgan edi va bu o'qituvchi va o'rganuvchilarning ijodiy fikrlashlariga to'sqinlik qilar edi. Ikkinci jahon urishining dastlbki yillarda harbiy maktablarni o'quv dasturlari tuzilishi va tashkiliy jihatdan Qurolli Kuchlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmay qoldi [4]. Urushning qiyin davrilarida har bir harbiy mакtabda o'rtacha 40 tadan o'qituvchi yetishmas edi. Kursantlarning asosiyo o'qituvchilari vzwod va rota komandirlari bo'lib qoldi. Komandirlar o'z bo'ysunuvchilarini imkon qadar shaxsiy tajriba va bilimlariga asoslangan holda o'qita boshladilar. Shu davlarda ham shaxsiy tarkibni o'qitish jarayonida professional malaka yetishmasligi katta muammo sifatida namoyon bo'ldi.

Tarixning achchiq haqiqatlardan quyidagicha hulosa qilib, harbiy ta'lif muassasalarini o'qituvchilarining kasbiy va pedagogik tayyorgarligini oshirish uchun quyidagi yo'naliishlarda ish olib borishni taqozo etmoqda.

- Harbiy ta'lif muassasalarida kadrlar siyosatini harbiy ta'lifning global vazifalarini tushunmasdan aniqlab bo'lmaydi. Pedagog sifatida endi shakllanayotgan ofitserni xizmat taqozosi bilan boshqa lavozimga tayinlash.
- Harbiy o'qituvchilarda kasbiy va pedagogik faoliyat rivojlantiradigan motivlar tizimini shakllantirish.
- Oliy harbiy ta'lif muassasalari rahbariyat lavozimlariga pedagogik ish tajribasiga ega bo'lgan ofitserlar tarkibidan tayinlash.
- Harbiy o'qituvchilarni tayyorlash ta'lif muassasani yaratish hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada kuchaytirish.
- Harbiy ta'lif muassasasi o'qituvchisining kasbiy va pedagogik madaniyatini rivojlantirish.

### XULOSA

Yuqoridagi dolzARB muammolar va ularni qisman bo'lsada yechimini topish uchun tavsiyalar ko'rsatib o'tildi. Biroq soha yo'nalishlari bo'yicha professional harbiy pedagoglarni tayyorlash, ta'lif muassasasini yaratish fursati kelganini hozirgi zamon talablari ko'rsatib turibdi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Подготовка преподавателей военных вузов к профессиональной деятельности: условия, модель, обеспечение и подходы / Э.Ж.Мухамедина 2019 й.
2. Педагогика: учебное пособие для студ. пед. учеб. Заведений / В.А.Сластенин - 3-е изд. - М. : Школа-Пресс, 2000.
3. Высшее образование в России: очерки истории до 1917 года / Под ред. В.Г. Кинелева. М., 1995.
4. O'zbekistonda harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash nazariyasi va amaliyoti: jahon tajribasi va amaliyoti / X. Xasanbaev 2021 yil.